

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

H.A.Abduvaliyev

Tabiiy-geografik omillarning aholi joylanishiga ta'siri bo'yicha ayrim xulosalar (Farg'ona vodiysi viloyatlari misolida) 101

M.X.Otamirzayeva

Daryo havzalari landshaftlarini tadqiq etishning zamonaviy metodlari 108

ILMIY AXBOROT**M.Abdupattoyev, X.P.Shodmonov**

Sintaktik-stilistik figuralar konvergensiysi 115

A.A.Mirzayev

Ibn Al-Arabiyning tasavvufiy qarashlarining asosiy yo'nalishlari va yondashuvlari 119

J.J.Shodiyev

Inson qadrini yuksaltirish borasida Abdulqodir Bedilning falsafiy g'oyalari 125

M.I.Temirova

F.M.Dostoevskiyning "Aka-uka Karamazovlar" romanida ota va farzand munosabatlari 130

A.M.Mamajonov

Katta ma'lumotlar asrida milliy xavfsizlik tadqiqotlari 135

P.Sh.Kaxramonova

Badiiy asar tili va ekolingvistika (O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" romani misolida) 141

J.U.Umaraliyeva

Zavqiy she'riyatida antroponimlarning qo'llanilishi 144

D.S.Ergasheva

O'zbek xalq ertaklari asosida vatanparvarlik va do'stlikka o'rgatishning pedagogik strategiyasini takomillashtirish 148

D.X.G'aniyeva

"Ta'lim" mikromaydonining paremiologik birliklari 153

X.X.Abduraxmonov

Maktab o'quvchilarning yengil atletika mashqlari orqali jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish 157

G.T.Hojikarimova, Sh.Usarova

Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kompetensiyasini rivojlantirish usullari (tikuvchilik buyumlarini konstruksiyalash va modellashtirish fani misolida) 161

O.Q.Abdullayev

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari 164

J.Sh.Nazarov

Pedagogik OTM talabalarida sog'lom turmush tarzini rivojlantirish hamda yuksaltirishning amaliyotdagi holati 168

Sh.F.Latipov

Madaniy kontekstda lakanaga yondosh hodisalar 173

D.M.Yuldasheva, Z.I.Usmonova

Siddiq Mo'min ijodida mehr konseptining ifodalanishi 175

Sh.M.Robilova

Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning psixologik va pedagogik ahamiyati 179

M.Sotvoldiyeva, G.Mirodiljonova

Chet tili o'qitish metodikasida zamonaviy usullar 183

R.R.Abdusattorov

Bolalarni suzishga o'rgatishda tayyorlov guruhining nazariy va amaliy asoslari 186

H.Arabboev

O'quvchilarni ommaviy sport sog'lomlashtirish jarayoniga tayyorlash tizimini takomillashtirish texnologiyasi 192

F.Xalikov

Ta'lim tizimida testologiyadan foydalanishning nazariy asoslarini takomillashtirishning ilmiy-pedagogik asoslari 197

M.I.Yusupova

Rus tilidagi ommaviy axborot vositalarida "Vatanparvarlik" konseptining ifodalanishi 204

SINTAKTIK-STILISTIK FIGURALAR KONVERGENSIYASI

КОНВЕРГЕНЦИЯ СИНТАКСИКО-СТИЛИСТИЧЕСКИХ ФИГУР

CONVERGENCE OF SYNTACTIC AND STYLISTIC FIGURES

¹Abdupattoyev Muhammadtohir

¹Farg'ona davlat universiteti, filologiya fanlari doktori

²Xolmatjon Shodmonov Po'latjon o'g'li

²Erkin tadqiqotchi

Annotatsiya

Maqolada badiiy yoki poetik nutq sintaktik-stilistik vositalarning sintaktik-stilistik figuralar bilan konvergensiya hosil qilishi va bunda nutq tarkibidagi stilistik o'zgarishlar hamda nutqning badiiy estetik funksiyasiga ta'siri masalalari haqida fikr yuritiladi. Nutqda boshqa sintaktik-stilistik vositalar bilan birga qo'llanib, stilistik konvergensiya hodisasini yuzaga chiqarishi ham mumkin. Sintaktik-stilistik figuralarni konvergensiya nuqtai nazaridan o'rganish shuni ko'rsatadiki, bu bilan turli sintaktik-stilistik figuralarning o'zaro ta'siri, ularning nafaqat funksional birlik sifatidagi, balki stilistik figura sifatidagi o'rnnini belgilash va nutqning badiiy-estetik jihatdan yuqori darajada shakllanishini tadqiq etish uchun ham asos bo'la oladi.

Аннотация

В статье рассматривается сближение синтаксически-стилистических средств с другими синтаксически-стилистическими фигурами, стилистические изменения в структуре речи, влияние речи на художественно-эстетическую функцию. его можно использовать вместе с другими синтаксически-стилистическими средствами в речи, чтобы выявить явление стилистической конвергенции. Изучение синтаксически-стилистических фигур с точки зрения конвергенции показывает, что взаимодействие различных синтаксически-стилистических фигур может быть основой для определения их места не только как функциональной единицы, но и как стилистической фигуры, для исследования художественно-эстетического формирование речи на высоком уровне.

Abstract

The article examines the convergence of syntactic-stylistic means with syntactic-stylistic figures, stylistic changes in the structure of speech, and the influence of speech on the artistic and aesthetic function. it can be used together with other syntactic and stylistic means in speech to identify the phenomenon of stylistic convergence. The study of syntactic-stylistic figures from the point of view of convergence shows that the interaction of various syntactic-stylistic figures can be the basis for determining their place not only as a functional unit, but also as a stylistic figure, for studying the artistic and aesthetic formation of speech at a high level.

Kalit so'zlar: sintaktik-stilistik figura, konvergensiya, polisindeton, paradigmatica, sintagmatika, sintaktik figura, takror, uslubiy vosita, struktural parallelizm, alternativ so'roq, gradatsiya, antiteza.

Ключевые слова: синтаксически-стилистическая фигура, конвергенция, полисиндетон, парадигматика, синтагматика, синтаксическая фигура, повтор, стилистический прием, структурный параллелизм, альтернативный вопрос, градация, антитеза.

Key words: syntactic-stylistic figure, convergence, polysyndeton, paradigmatics, syntagmatics, syntactic figure, repetition, stylistic device, structural parallelism, alternative question, gradation, antithesis.

KIRISH

Ma'lumki sintaktik-stilistik figuralar fikrni ta'kidlab ko'rsatish, kuchaytirish, ta'siriylig hosil qilish vositasi hamdir. Ular, ayniqsa, poetik nutqning nafaqat gorizontal tartiblanishini, balki vertikal (satrlararo) bog'liqligini va gaplarning uyushib kelishini ham ham ta'minlaydi. Ularning nutq tarkibida qo'llanishi bayon qilinayotgan voqe-a-hodisalarining uzviy rivojlanishi, tadrijiy taraqqiyoti uchun yo'l ochadi, sintaktik qurilmada mazmun uyg'unligini keltirib chiqaradi. Sintaktik-stilistik figuralarning uslubiy qiymati shundaki, ular nutq qismlariga shakliy jihatdan ham mazmuniy jihatdan ham mustaqillik beradi. Ularning uslubiy imkoniyatlari poetik nutq chuqur tahlil qilingandagina yuzaga chiqadi. Grammatik ma'noning chekinishi, ya'ni gap bo'laklari yokiboshqa vazifalarda kelgan sintaktik-stilistik figuralarning grammatik vazifasining sustlashuvi, poetik nutqda mantiqiy izchillikning rivojlanishiga olib keladi. Bunda qo'llanayotgan birlikning uslubiy vazifasi oshib boradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Sintaktik-stilistika masalalari, xususan, sintaktik-stilistik figuralar masalalariga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlarda har bir tadqiqotchi mazkur yo'nalishda sintaktik-stilistik figuralar haqida, ularning badiiy va poetik nutqni shakllantirish, bunday nutq turlarida badiiy-estetik ta'siriylikni ta'minlash bo'yicha turli

mulonazalarni bildirib o'tgan bo'lsalar-da, sintaktik-stilistik figuralarning doiraviy-aratish, ya'ni konvergension tartibda qo'llanishi bo'yicha yetarli ma'lumot berib o'tmaganlar.

Tilshunoslikda sintaktik-stilistik figuralar masalalariga bag'ishlangan ishlarda, jumladan, T.N.Silman [1], V.Riffaterre [2], I.P.Moskvin [3], A.A.Strelsov [4], A.Mamajonov [5], M.Abdupattoyev [6]larning ishlarida sintaktik-stilistik figuralarga yondashuv turli aspektlarda amalga oshirilgan. Shunga qaramay, bu turdag'i vositalar tadqiqini tilshunoslikda keyingi yillarda paydo bo'lgan zamonaviy yondashuvlar va ilmiy-tadqiqot metodlari asosida ko'rib chiqish va baholash zarurati tug'ildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Yuqorida aytib o'tilgan fikrlardan ma'lum bo'ladiki, sintaktik-stilistik figuralar nutqqa tantanavorlik, ulug'vorlik, hissiy-ta'siri ko'tarinkilik, musiqiy effekt beradi. Nutq oqimining erkin va keng ko'lamli harakatlanishini ta'minlaydi, nutqni yangi va yangi informatsiyalar bilan to'ldirib boradi.

Sintaktik-stilistik figuralarning asosiy funksiyalaridan biri uning poetik nutqda vertikal satrlarning shakllanishi va ularning o'zaro bog'lanishidagi funksiyasidir. Vertikal satrlar asar makromuhiti bilan, gorizontal satrlar esa uning asar mikromuhiti bilan uzviy aloqadorligi natijasida shakllanadi. Sintaktik-stilistik figuralarning qo'llanishi natijasida bir-biri bilan kontakt aloqada bo'lgan vertikal satrlar shakllanadi. Vertikal satrlarning shakllanishi poetik nutqning tashqi tuzilishi (kompozitsiyasi)ning yaralishiga olib keladi.

Sintaktik-stilistik figuralar bitta gap tarkibida aralash holatlarda qo'llanganda esa hissiy-ta'siriylig' yanada oshadi. Masalan, Polisindeton nutqda boshqa sintaktik-stilistik vositalar bilan birga, doiraviy-aratish holda qo'llanib stilistik konvergensiya hodisasini yuzaga chiqarishi ham mumkin. Polisindetonna stilistik konvergensiya nuqtai nazaridan o'rganish shuni ko'rsatadiki, bu bilan boshqa sintaktik-stilistik figuralar bilan o'zaro ta'siri uning nafaqat funksional birlik sifatidagi, balki stilistik figura sifatidagi o'rnni ham belgilab beradi. Konvergensiya atamasi birinchi marta nemis tilshunosi M. Riffater tomonidan qo'llanilgan bo'lib, u bu tushunchaga quyidagicha ta'rif beradi: "Konvergensiya – bu, ma'lum bir stilistik maqsadda ikki va undan ortiq sintaktik-stilistik vositalarning birgalikda qo'llanishi natijasida yuzaga keluvchi nutq hodisasidei" [2].

Rus tilshunosi I.P. Moskvin konvergensiya atamasi ostida turli darajadagi sintaktik-stilistik vositalarning yagona stilistik maqsadning yuzaga chiqishi uchun ishlatilishi natijasida yuzaga kelgan murakkab stilistik usulni tushunish lozimligini ta'kidlaydi [3]. Keltirilgan har ikki ta'nifdan ko'rindan, sintaktik-stilistik vositalarning o'zaro birgalikda qo'llanishi natijasida ular o'rtasida konvergensiya yuzaga keladi. Polisindetonda ham xuddi shunday xususiyat mavjud. Kuzatilgan til faktlari shuni tasdiqlaydiki, Polisindetonning poetik nutqda ko'proq struktural parallelizm, gradatsiya, antiteza, ritorik so'roq usullari bilan birga qo'llanishi ko'proq kuzatiladi.

Polisindeton poetik nutqda sintaktik figuralarning shakllanishiga ham o'z hissasini qo'shadi. U, ayniqsa, anfora, struktural parallelizm, gradatsiya kabi figuralarning yuzaga chiqishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Mazkur figuralarning barchasi takror asosida shakllanadi. Polisindetonga asoslangan holda shakllanuvchi va poetik nutqda keng qo'llanuvchi eng mahsuldar figura struktural parallelizm hisoblanadi. Struktural parallelizm tarkibiga bir xil strukturada takrorlanuvchi so'z birikmalar, predikativ birliklar, sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi o'ramlaridan iborat birikmalar kiradi va ushbu figurani shakllantiradi. Parallelizm tamoyiliga asoslanib shakllangan birliklar uyushgan holda va vertikal ketma ketlikda o'rinalashib struktural parallelizm usulini namoyon etadi. Sintaktik parallelizm ikki va undan ortiq sintaktik qurilmalarning bir xil qolipda shakllanishiga va o'zaro aloqaga kirishiga asoslanadi. Bu munosabatlar fikriy izchillik va mantiqiy ketma-ketlikni ta'minlaydi. Ular kontakt yoki distant holatda yuzaga chiqadi. Bu holat she'riy bandlar yoki poetik nutqning butun bir hajmi doirasida yuzaga chiqishi mumkin:

*Goh muhandis ul, munajjim goh,
Goh o'zini tolib deb atar.
Goh muallim, goh sohib dastgoh...
Kasbi ko'pmi uning shu qadar? (E.Vohidov)*

Berilgan misolda yuqorida nazarliy fikrlar o'z tasdig'ini topgan. Ushbu misolda goh bog'lovchisining takrorlanishi bilan matnda struktural parallelizm ham yuzaga kelgan, misoldagi *Goh muhandis, Goh muallim, goh sohib dastgoh...* satrlari polisindetonning struktural parallelizm usuli bilan birga qo'llanishi natijasida ular o'rtasida konvergensiya hodisasi yuzaga kelganligi kuzatiladi.

Polisindeton poetik nutqning yana bir sintaktik-stilistik vositasi hisoblangan alternativ so'roq bilan ham konvergensiya hosil qilishi mumkin.

Poetik nutqda so'roq gaplarning shunday turlari ham uchraydiki, bunday gaplarda so'zlovchi tomonidan tinglovchiga bir paytning o'zida ikkita bir-biriga yondosh savol beriladi. To'g'rirog'i, bunday

gaplar so'zlovchi tomonidan ikki farazdan birini tinglovchiga tasdiqlatib olish maqsadida qo'llaniladi [7]. Bu turdag'i gaplar tilshunoslikda alternativ (muqobil) so'roq gaplar, deb yuritiladi. Alternativ so'roq gaplarga xos eng asosiy xususiyat shuki, ularda aksariyat hollarda, bir-biriga zid keluvchi, bir-birini inkor etuvchi, bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan harakat-holatlar haqida savol beriladi. Alternativ so'roq ko'rinishlari ham poetik nutqda ekspressivlikni oshirish, emotsiyallik va ta'sirchanlikni kuchaytirish kabi stilistik maqsadlarda qo'llanadi. Alternativ so'roq haqida rus tilshunosi A.A. Strelsov o'zining "So'roq kategoriyasiga uch yondashuv" nomli maqolasida ayrim umumiylarni berib o'tgan[4]. Alternativ so'roq poetik nutqda emotsiyallikni oshirish uchun xizmat qiladi. Bunda yo, yoki ayiruv bog'lovchilar so'roq ifodalangan narsa-hodisalarini ajratib ko'rsatish, alohida logik urg'u berish maqsadida qo'llaniladi[5] Shu bilan birga mazkur bog'lovchilarning alternativ so'roq gap tarkibida takrorlanishi polisindeton va alternativ so'roqning konvergensiya hodisasini yuzaga chiqishiga sabab bo'ladi:

Ayta olasizmi yurtning dardini?

Azaliy odatni qilasizmi yo

Yalpi qo'l ko'tarib kelasizmi yo? (E.Vohidov)

Ushbu misolda, yuqorida aytib o'tilganidek, polisindeton (yo bog'lovchisining takrorlanishi) va alternativ so'roq (uchtan muqobil so'roq)ning birgalikda qo'llanishi natijasida murakkab stilistik usul – konvergensiya yuzaga kelgan.

Konvergensiya tarkibida yana ham ko'proq qo'llanuvchi sintaktik-stilistik figuralardan biri struktural parallelizmdir. Ma'lumki, struktural parallelizm (yunoncha, parallelos – yonma-yon boruvchi) yonma-yon gaplar, sintagmalarning bir xil sintaktik qurilishga ega bo'lishi hisoblanadi. Struktural parallelizm poetik nutqning asosiy sintaktik-stilistik figuralaridan biri bo'lib, ta'siriylikni oshirish, ichki ritmni kuchaytirish maqsadida qo'llanadi. Struktural parallelizm o'zbek tilshunosligida R.M.Shukurov tomonidan monografik planda maxsus o'rganilgan [8]. Mazkur sintaktik-stilistik figura haqidagi ma'lumotlarni boshqa tilshunoslar ishlaridan ham olish mumkin [9]. Demak, struktural parallelizm o'zbek tilshunosligida lingvistik vosita yoki sintaktik-stilistik figura sifatida keng va atroficha tadqiq etilgan. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, parallelizm poetik nutqning maxsus sintaktik-stilistik figurasi sifatida satrlarning teng urg'uli sintagmalarga bo'linishi, satrlardagi bo'laklarning parallel holda joylashuviga asoslanadi:

Zo'r shoир dilida zo'r umid yashar,

Ko'r shoир dilida ko'r umid yashar.

Har umid tuproqqa tashlangan dondek

Butun koinotdan nur kutib yashar. (X.Davron)

Keltirilgan misoldan ko'rinih turganidek, parchaning dastlabki ikki satrini tashkil etgan gaplar teng urg'uli sintagmalar asosida shakllangan va bir xil sintaktik qurilishga ega, ya'ni har ikki satr: aniqlovchi+to'ldiruvchi+aniqlovchi+ega+kesim tartibida kelgan.

Struktural parallelizmning eng birinchi poetik vazifasi ichki ritmni shakllantirishida ko'rindi:

Ko'ngil so'rab, ko'ngil buzdi do'stlarim.

Ko'nglim so'rab, ko'ngil uzdi do'stlarim. (Iqbol Mirzo)

Keltirilgan misol struktural parallelizmning poetik nutqni teng o'Ichovli ritmda shakllantirishini yana bir bor tasdiqlaydi, ya'ni mazkur misolda har bir satrda struktural parallelizm vositasida uchtadan teng urg'uli sintagmalar shakllangan. Bundan tashqari, misolda sintaktik-stilistik figuralar konvergensiysi ham mavjud, diqqat qilinsa, unda eng mahsuldar sintaktik-stilistik figura hisoblangan takror ko'rinishlari ham kuzatiladi. Misolda sintaktik takror – *ko'ngil so'ramoq* birikmasining hamda leksik takror – *ko'ngil, do'stlarim* leksemalarining takrorlanishi yuzaga kelgan.

Struktural parallelizm usulining boshqa sintaktik-stilistik figuralar bilan ham konvergensiya hosil qilishi haqidagi fikrlarimizni o'zbek badiiy va poetik nutqidan olingan misollar yordamida yana davom ettirishimiz mumkin. Struktural parallelizm bilan birga, ya'ni konvergension holatda qo'llanuvchi faol vositalardan biri, bu antitezadir.

Ma'lumki, badiiy va poetik nutqda antiteza bir-biriga zid, qarama-qarshi bo'lgan ikki tushuncha, obraz, voqeа-hodisalar yoki ularning biror bir belgisini qiyoslash asosida yuzaga keladi [10]. Tilshunoslikda antiteza poetik nutning alohida ekspressiv-stilistik funksiya bajaruvchi figurasi sifatida talqin etiladi [11] Poetik nutqda qarama-qarshilik va zidlik grammatik, leksik va kompozitsion birliklar vositasida ifoda etiladi. Ular antitezali munosabatlarni yuzaga chiqaruvchi vositalar hisoblanib, antiteza orqali ifoda etilayotgan ta'siriylik darajasi mazkur vositalarning ifoda imkoniyatlar bilan bog'liq bo'ladi, ya'ni ifodaviy mazmun qanchalar chuqur bo'lsa, antiteza shuncha keng uslubiy funksiya bajaradi. Masalan, Oq buloqni izladim, Qora buloq duch keldi satrlarida ikki leksik birlik (oq, qora) vositasida antitezali munosabat yuzaga kelgan bo'lsa, ifodadagi ekspressivlik ham shunga munosib tarzda

voqelangan. Poetik nutqda antitezaning shunday chuqur va ta'sirli ifoda vositalari ham uchraydiki, ularda hissiy-ta'siriylig va ekspressivlik juda yuqori bo'ladi:

*Qop-qora tun chiqib kelar botordan,
Oq, oppoq kun chiqib kelar tug'ordan. (X.Davron)*

Satrlarida *qop-qora – oq,oppoq; tun – kun* antitezali munosabatlar ifodasida ta'siriylig, tasviriylik va ekspressivlik kengroq, chuqurroq ekanligi ko'zga tashlanadi. Bu bilan antitezaning funksiyasi sintaktik qurilmalar yordamida birmuncha oshirilgani kuzatiladi. Shuningdek, misolda konvergensiya hodisasi ham kuzatiladi. Misolda antiteza bilan doiraviy-ralash holda struktural parallelizm ham qo'llangan, Satrlarni tashkil etgan gaplarda aniqlovchi+ega+kesim+o'rinn holi aniq ketma-ketligini, ya'ni struktural paralleligini kuzatishimiz mumkin. Poetik nutqda antitezaning sintaktik-stilistik figura sifatida alohida o'zi qo'llanishi kamyob hodisa bo'lib, ko'pincha, boshqa figuralar bilan konvergensiya yuzaga kirishadi. Masalan, quyidagi misolda antiteza-takror-struktural parallelizm konvergensiysi yuzaga kelgan.

*Bir shirin so'z odamga asal bo'lib tuyular,
Bir shirin so'z odamga zahar bo'lib tuyular. (maqol)*

Bog'lovchisiz qo'shma gap orqali ifodalangan yuqoridagi maqolda antiteza – *asal-zahar* leksemalari orqali, sintaktik takror – *bir shirin so'z, asal bo'lib tuyulmoq, odamga tuyulmoq*, birikmalarining takrorlanishi bilan, struktural parallelizm – satrlarni tashkil etgan gaplarda aniqloqlovchi+aniqlovchi+ega+to'ldiruvchi+hol+kesim paralleligi vositasida yuzaga chiqanini kuzatishimiz mumkin.

Antiteza shu yo'l bilan kontrast tushunchalarni yaratadi, ularning zid belgilarini qiyoslash yo'li bilan ifoda etadi va o'ziga xos stilistik bo'yoqdorlik hosil qiladi. Ayniqsa, yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, sintaktik-stilistik figuralar konvergensiyasida tarkibida qo'llanganida nutq mahsulдорligini orttiradi, tasviriy kontrastni kuchaytiradi.

XULOSA

Umuman, sintaktik-stilistik figuralar konvergensiyasida, ko'rib o'tganimizdek, fikr dinamikasi tezlashadi, nutqning semantik maydoni kengayadi, nutqda ohangdorlik hosil qilinadi, sintaktik qurilmalarning qismalari o'zaro semantik va sintaktik uyg'unlikda birikadi, nutqning ichki ritmi va fonosemantikasi kuchayadi. Shu bilan birga, badiiy yoki poetik nutqdagi hissiy-ta'siriylig, obrazililik, ekspressivlik yuqori darajaga ko'tariladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Сильман Т.Н. Синтаксико-стилистические особенности повторов – Вопросы языноведения, 1967, № 2, - С 68.
- Riffaterre V. Criteria for Style Analysis // Word. – April 1959. №1. - Р 15-18.
- Москвин В. П. Стилистика русского языка: Приёмы и средства выразительной и образной речи (общая классификация): Пособие для студентов. Волгоград: Учитель, 2000. – С 198 .
- Стрелцов А.А. Три подхода к категории вопросительности. Вестник ПНИПУ. Проблемы языковедения и педагогики № 3, 2017. – С 43-57.
- Mamajonov A., Addupattoyev M. O'zbek matnining semantic, sintaktik va stilistik aspekti. (monografiya), Farg`ona., "Classic". 2021. – Б 208.
- Ўзбек тилининг поэтик синтаксиси. Монография – Фаргона : Classic, 2021. – Б. 208.
- Abdurahmonov V. A. Alternativ so'roq gaplarning semantic-struktur va funksional tadqiqi. Fil. fanlari b. falsafa dok. (PhD) diss... avtoreferati. Farg'ona – 2023. – В 58.
- Шукуров Р.М. Параллел синтактик бутунликлар: Филол. фан. номз.. дис. автореф. – Фаргона, 2004. – Б 23 .
- Умирова С.М. Ўзбек шеъриятида лингвистик воситалар ва поэтик индвидуаллик. Фил.фан.б.фалс.док.(PhD дисс..автореф. Самарқанд 2019. – Б 48.
- Иванюк Б.П. Поэтическая речь: словарь терминов М.: Флинта: Наука, 2007. – С 312.
- Вертаева Л.В. Антитета как принцип организации художественного текста (на материале современного английского языка): автореф. дис. канд. филол. наук. – Минск, 1984. – С 22 .